

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

“KELISHILDI”

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi

SH.Sharipov

2018 yil “28” 06

2018 yil “25” 08

Ro‘yhatga olindi: BD -5110900-2.07

2018 - yil “18” 08

**TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI**

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar  
Ta‘lim sohasi: 110000 – Pedagogika  
Ta‘lim yo‘nalishi: 5110900 – Pedagogika va psixologiya

**TOSHKENT – 2018**

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil "18" 06 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil "15" 08 dagi 744-sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

A.Sh.Muxsiyeva – Nizomiy nomidagi TDPU "Pedagogika" kafedrası dotsenti, p.f.n.

**Taqrizchilar:**

N.M.Egamberdiyeva – A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti xuzuridagi OTMPO'QTMO tarmoq markazi direktori, p.f.d., professor

M.X.Tadjiyeva – Toshkent pedagogika kolleji direktori, p.f.n.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy Kengashida tavsiya qilingan (2018-yil 08 06 dagi 11 - sonli bayonnomasi).

## I. O'quv fanining dolzarbligi oily kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu dastur tarbiya ijtimoiy-tarixiy jarayon sifatida; tarbiya paradigmalari, tarbiya jarayonida bola shaxsi; tarbiya metodikasi tushunchasi; insonparvarlik tarbiyasi tamoyillari, metod va texnologiyalari; tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish yo'llari; guruh (sinf) rahbarining faoliyati, bolalar jamoat tashkilotlari; tarbiya jarayonida ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish kabi masalalarni qamrab olgan.

## II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad – bakalavr talabalariga kelajak avlodni ma'naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalashda innovatsion tarbiya texnologiyalarini qonuniyatlarini o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifasi – tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning nazariy asoslari haqida bilim berish; bo'lajak tarbiyachilarda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishning sifat samaradorligini oshirishga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- tarbiya jarayonining hozirgi bosqich muammolari;
- tarbiyaviy ish metodikasi fanini o'rganishning qonuniyatlari;
- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda innovatsion tarbiya texnologiyalari;
- barkamol shaxs tarbiyasida guruh rahbari faoliyatining o'rni;
- guruh rahbari faoliyatini tashkil etishda pedagogik mahoratni tarkib toptirish **bilimga.**

- aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik tarbiya mazmunini;
- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar jarayonida innovatsion tarbiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini;
- jahon tarbiya kontseptsiyalari namunalarining qiyosiy tahlilini;
- tarbiya jarayonida ijtimoiy institutlarning o'rmini;
- AL va KHKlarida tarbiyaviy ishlarning mazmuni va mohiyatini;
- mehribonlik uylarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning o'ziga xosliklarini;
- tarbiyaviy korreksion faoliyat metodikasini;
- Yoshlar tashkilotlarining ta'lim muassasalari bilan olib boradigan tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ish shakllarini;
- jamoada shaxsni shakllantirishning bosqichlarini;
- ma'naviy-axloqiy ishlarni tashkil etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarini

**ko'nikma;**

- guruh rahbari faoliyatini tashkil etish;
- tarbiya jarayonida ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish;
- guruh rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ish shakllarini bilish;
- kasb-hunar kollejlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish **malakasiga ega bo'lishi kerak.**

### **III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

#### **1-Modul. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanning nazariy asoslari**

**1-mavzu. Tarbiya ijtimoiy-tarixiy jarayon sifatida.** Tarbiyaviy ish metodikasi fanining maqsad va vazifalari. Tarbiyaviy ish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Tarbiyaviy ish metodikasi fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.

**2-mavzu. Jahon tarbiya kontsepsiyalari.** Tarbiya kontsepsiyalarining tarbiyaviy jarayondagi ahamiyati. Kontsepsiya tushunchasining mazmuni. Jahon tarbiyaviy kontsepsiyalari.

**3-mavzu. Tarbiyaviy ishlar metodikasi tushunchasi.** Tarbiyaviy ish: tarkibi va tuzilishi. Ijtimoiy yo'naltirilgan tarbiyaviy ish. Axloqiy tarbiyaviy ish. Estetik va jismoniy tarbiyaviy ish. Ekologik va mehnat tarbiyaviy ishi.

**4-mavzu. Tarbiyaviy ishlar jarayonida guruh rahbarining pedagogik mahorati.** Guruh rahbarining faoliyatida pedagogik mahoratning tutgan o'rni. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari. Tarbiyaviy ishlar jarayonida o'zaro munosabatlarda nutqsiz vositalarning ahamiyati.

**5-mavzu. Tarbiya jarayonida muomalaning tutgan o'rni**  
O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasining mohiyati. O'qituvchi muomala subyekt sifatida. O'qituvchi faoliyatida muomalaning ahamiyati.

#### **2-Modul. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanning amaliy ahamiyati**

**6-mavzu. Ta'lim muassasasi tarbiyaviy tizimida guruh rahbari.** Guruh rahbari va uning faoliyati mazmuni. Guruh rahbarining vazifalari, huquq va majburiyatlari. Guruh rahbarining o'quvchilar bilan olib boradigan ish shakllari.

**7-mavzu. Jamoani shakllantirish metodikasi.** Jamoa tushunchasi va uning o'ziga xosliklari. Jamoani shakllantirish bosqichlari. Guruh rahbarining jamoada shaxsni shakllantirishdagi faoliyati.

**8-mavzu. AL va KHKlarida tarbiyaviy ishiarni tashkil etish.** Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarda yoshlar tarbiyasiga munosabati. AL va KHKlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar mazmuni. Tarbiya qoidalari.

**9-mavzu. Mehribonlik uylarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning o'ziga xosliklari.** Mehribonlik uylarida olib boriladiga ma'naviy-axloqiy ishlar mazmuni. Mehribonlik uylarida tarbiyachilarning faoliyatini tashkil etish. Innovatsion tarbiya texnologiyalarining tarbiyalanuvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishdagi ahamiyati.

**10-mavzu. Yoshlar tashkilotlarining ta'lim muassasalari bilan olib boradigan ishlarning mazmuni.** Yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotlarining faoliyati, maqsad va vazifalari. Yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotlarining ta'lim muassasalari bilan olib boradigan faoliyati. Yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotlarining faoliyatini o'rganish.

**11-mavzu. Tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish yo'llari.**

Tarbiyaviy ishlar samaradorligini aniqlash mezonlari. Tarbiyaviy ishlar samaradorligini aniqlash metodikasi. Tashxislash natijalarini qayd etish.

**12-mavzu. Bolalar va yoshlar jamoat tashkilotlari.** Bolalarni himoya qilishning xuquqiy asoslari. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tashkilotlari. Ta'lim muassasalarining bolalar tashkilotlari bilan olib boradigan faoliyati.

**13-mavzu. Tarbiya jarayonida ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish.** Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda "oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi" Kontseptsiyasining o'rni va ahamiyati. Guruh rahbarining faoliyatini ota-onalar bilan ish shakl va metodlari. O'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari.

**IV. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Tarbiya ijtimoiy-tarixiy jarayon sifatida
2. Insonparvarlik tarbiyasi
3. Tarbiyaviy ish va uni tashkil etish metodikasi
4. Ta'lim muassasasi tarbiyaviy tizimida guruh (sinf) rahbari
5. "Kamalak" bolalar va "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotining faoliyati, maqsad va vazifalari
6. Tarbiyaviy ishlar samaradorligini tashxis etish.

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish jarayonida talabalar pedagogikaga oid darslik va o'quv qo'llanmalaridan foydalangan holda, ma'ruza mashg'uloti jarayonida egallagan bilimlarini yanada boyitishadi hamda ko'nikma va malakalarga ega bo'lishadi. Seminar mashg'ulotlari amaliy topshiriqlarni bajarish bilan uzviylikda amalga oshiriladi.

**V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda mazkur fanning muayyan o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- 1) darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalanib, barcha mavzularni o'rganish;
- 2) tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish.

Talabalarning mustaqil ta'limi har bir ma'ruza mavzusi asosida tashkil etiladi. Fanni o'rganish jarayonida mustaqil ta'limning bir necha turlaridan foydalaniladi:

- 1) adabiyotlar bilan ishlash;
- 2) ijodiy ish;
- 3) ba'zi mavzular bo'yicha referatlar tayyorlash.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lim mavzulari:

1. Zamonaviy o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi va tarbiyaviy ish holati.
2. Zamonaviy ta'lim muassasalari tarbiyaviy tizimi va uning rivojlanish tendentsiyasi.

3. Jamoa o'quvchi individualligini rivojlantirish omili sifatida.
4. Ta'lim muassasasida muhit.
5. Axloqiy tarbiya jarayonida pedagogning roli va vazifasi.
6. O'quvchilarning axloqiy tarbiyalanganlik darajasini aniqlash metodlari.
7. O'smirlarda fuqarolik mas'uliyati, burchi hissini tarbiyalash metodikasi.
8. Guruh tarbiyaviy ishlarini rejalashtirish.

*Fan bo'yicha kurs ishi rejalashtirilmagan.*

## VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

### Asosiy adabiyotlar

1. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010 y.
2. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2010 y.
3. И.А. Колосникова, Н.М. Борытко и др. Воспитательная деятельность педагога. Учебное пособие. М.: Академия, 2006 – 333 с.
4. Подласый И.П. Педагогика 2-я часть – М.: ВЛАДОС, 2003 г.

### Qo'shimcha adabiyotlar

5. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий лавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти нутқи. // Халқ сўзи газетаси, 2017.16 январ, №11
6. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курашимиз. “Ўзбекистон”, 2017.
7. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил, 6-сон, 70-модда.
8. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлаш тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. “Ўзбекистон”, 2017.
9. Кукушин В.С. Теория и методика воспитания. – Рощов-на-Дону.: Феникс, 2006.

**Izoh:** Qo'shimcha adabiyotlar boshqa ilmiy kutubxonalarda mavjud.

#### **Internet saytlari**

- 10.<http://tdpu.uz>
- 11.<http://Ziyonet.uz>
- 12.<http://edu.uz>
- 13.[www.natlib.uz](http://www.natlib.uz) (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
- 14.<http://teoriya.ru>
- 15.<http://uni-vologda.ac.ru>
- 16.<http://pedlib.ru>
- 17.<http://pedagog.uz>
- 18.<http://ndpu.uz>.

**Izoh:** qo'shimcha adabiyotlar boshqa axborot-resurs markazlarida mavjud